

USMON NOSIR

*Fotima Ismoilova Izzat qizi - O'zDSMI**"San'atshunoslik: sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi"**3-bosqich talabasi +998945850306*

Annotatsiya: XX asr o'zbek she'riyatining yorqin namoyondasi Usmon Nosir o'zbek adabiyotida juda muhim o'rinni tutadi. U shoir, dramaturg hamda tarjimonidir. U 1930-yillarning boshlarida o'zining o'zgacha dunyoqarashi bilan o'zbek she'riyatiga yangicha oqim olib kirgan shoirdir. Quyida Usmon Nosir haqidagi spektakl haqida so'z boradi, uning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Bahodir Karimov, drama, spektakl, syujet, mahorat, obraz, yangilik, nutq, konflikt.

“Yan Parandovskiy o'zining “So‘z kimyosi” asarida dunyo adabiyotidagi yoshlikdayoq shakllangan shoirlarni sanab o‘tib, ular qatoriga M. Y. Lermontov, A. S. Pushkin, H. Hayne kabilarni qo‘sadi. Agar u o'zbek she'riyatini bilganida edi, albatta Usmon Nosirni ham qo‘sghan bo‘lar edi” – deydi filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimov. Darhaqiqat, professoring gaplarida jon bor. Sababi Usmon Nosir o'zbek she'riyatida o'zining yuksak iste'dodi va betakror ijodi bilan alohida ahamiyatga ega.

“Usmon Nosir” spektakli 10-noyabr kuni omma e'tiboriga havola qilingan bo'lib, ushbu dramani dramaturg Nodira Rashidova yozdi hamda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Marat Azimov sahnalashtirdi. Unda Usmon Nosir – Hamza Hasanov, Xolambibi – Shohida Ismoilova, Nosir hoji – Tesha Mo'minov, Rohatxon – Nigina Anorboyeva, Inobatxon – Dilbar Ma'murova, Mahmudxon – Abdulloh Husanov, Nasrullo Davron – G'ayrat Boymirzayev, Cho'lpon – Sobirjon Otajonov, Abdulla Qodiriy – Avazxo'ja Qodirov, G'ulom Zafariy – Baxtiyor Yunusov, Elbek – Sharofiddin Muzropov, Xayriddinov – Lazizbek Orziyev, Klyopov – Jamoliddin Abdujabborov, Mathev – Rustam Karimov, Mavrin – Davron Karimov, Ernest Tamara Lvovna – Xosiyat Xusanova kabilalar rol ijro etishdi.

Spektaklning asosiy maqsadi bugungi kunda unib-o'sib kelayotgan yosh avlodga Usmon Nosirdek buyuk bir shaxsning millatimiz taqdiri, ertangi kuni haqida qanchalik qayg‘urib yashaganligini ko'rsatish, uni xalqqa yaxshiroq tanitishdir.

Keling, avvalo syujetga to'xtalsak, dastlab Usmon Nosirning Moskvadan qaytishi, oila a'zolariga sovg'a-salomlar olib kelishi bilan spektakl boshlanadi. Keyin bir qancha shoir-u, yozuvchilar o'rtasida yig'in bo'lib o'tadi. Ular she'rxonlik qilishadi. So'ng ustozlari zamon og'irligini ta'kidlab, Usmon Nosirga ehtiyyotkorlik bilan ijod qilishni maslahat berishadi. Uni Yozuvchilar Uyushmasi safidan chiqarib yuborishgach, uyiga

askarlar kelib qo‘lga olishadi. Ba’zi askarlar vaxshiylarcha, ba’zilari esa istar-istamas uni urib, qiyab tergov qilishadi. Usmon Nosir 1937-yilda 10 yilga ozodlikdan mahrum etilganligi haqida ovoz yangraydi. Keyin oradan yillar o‘tib 1944-yil 9-mart kuni uning qamoqxonadagi og‘ir hayoti va vafot etganligi ko‘rsatiladi. Spektakl so‘ngida Usmon Nosir tilidan yangragan she’rning “Xalqim sen yig‘lama, men ozod vatanning bog‘ida abadiy tirik qolaman” degan so‘zлari ayni haqiqatdir va shuning uchun ham u meni juda ta’sirlantirdi.

Spektakl juda ta’sirli chiqqan. Bunga sabab aktyorlarning yuksak mahorat sohibi ekanlidir. Spektakl davomida eng yoqqan obraz bu Usmon Nosirning otasini gavdalantirgan Tesha Mo‘minovning obrazi bo‘ldi. U bu rolni o‘ziga xos ichki kechinma bilan o‘ynayotganligiga guvoh bo‘ldim. Usmon Nosir obrazi ham alohida mahorat bilan ijro etilgan. Asosiysi unda shoirona qarashlar, o‘zgacha xarakterni ko‘ramiz. Aktyorlar rol ijro etish jarayonida ko‘p xatti-harakat qilishganligi, ya’ni bir joyda to‘xtab qolmaganligi ham meni xursand qildi. Spektakldagi har bir dekoratsiyadan aktyorlar unumli foydalanishga harakat qilishgan. Bundan tashqari, spektakl davomida yangragan kuy tomoshabinni qattiq ta’sirlantirib, yig‘lashiga majbur qilganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ayniqsa Usmon Nosirni askarlar qo‘lgan olishgan va qamoqxonadagi og‘ir hayoti aks ettirilgan sahnalarda uning ta’sirchanligi ko‘proq sezildi. Spektakldan o‘zim bilmagan bir yangilikni oldim. Ya’ni Usmon Nosir Moskvada bo‘lgan payt Pushkin vafoti 100 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda qatnashganligi, nutqqa chiqib Shillerni Gyote deb yanglishgan odamning xatosini to‘g‘rilaganligi, aynan shu ishidan so‘ng u barcha qatnashuvchilar hurmat-e’tiboriga sazovor bo‘lganligini bildim.

Endi spektaklning kamchilikdek tuyilgan ba’zi bir jixatlariga to‘xtalib o‘taman. Avvalo, aktyorlar nutqiga diqqatliroq bo‘lishlari kerak edi. Sababi aktyorlar ko‘p marotaba dialoglarda chalkashishdi, hatto so‘zлarni oxirigacha ham talaffuz qilishmadid. Usmon Nosirning kichik singlisi obrazini yaratgan Dilbar Ma’murova ijrosida yasama kulgular haddan tashqari sezilib turdi. Spektakldan yuqorida ta’kidlab o‘tganiddek, o‘zim uchun faqat birgina yangilikni oldim. Tomoshabin bilmaydigan yangiliklar ko‘proq bo‘lishi kerak edi nazarimda. Sahna bezaklari yuksak did bilan ishlangan, lekin ba’zi dekoratsiya va butaforlar aynan hozirgi zamonga tegishli ekanligi yaqqol sezilib turdi. Bularga A4 formatidagi oq qog‘ozni, ko‘zoynak va oyoq kiyimni misol qila olaman. Ikkinci sahnada – yig‘inda she’rlar juda ko‘payib ketgandek tuyuldi. Sababi tomoshabinlarda zerikish paydo bo‘lganligida. Bundan tashqari, eng asosiy bir jihat – voqealar rivoji biroz sustligini alohida ta’kidlashim kerak. Qandaydir ziddiyatli voqealarni, konfliktlarga to‘la sahnalarni kutgandim. Nazarimda Usmon Nosir qamoqqa olinganidan so‘ng oradan birdaniga yillar o‘tishi kerak emasdi. Uning aynan qamoqxonadagi hayotini ko‘proq yoritib berishadi deb o‘ylagandim.